

**KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH:
IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR**

Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining
Jizzax filiali katta o'qituvchisi magistrant_s@mail.ru*

Bozorboyev Diyorbek Po'lat o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining
Jizzax filiali 2-bosqich talabasi*

Kalit so'zlar: *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kredit, imtiyozli davr, tadbirkor, crowdfunding, moliyaviy savodxonlik*

Annotatsiya: *Kichik biznes iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ular yangi ish o'rinalarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim rol o'yaydi. Ushbu maqolada kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari, muammolari, rivojlantirish uchun qabul qilingan qarorlar, dasturlar va shu kabi mavzular jihatdan ko'rib chiqiladi.*

O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinalari yaratish va aholi daromadini oshirishda hamda asosiysi davlat byudjetining asosiy qismini egallaydigan muhim omillardan birisi bu, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. "Kichik biznes — iqtisodiyotning qon tomiri" deya bejizga aytilmaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasini yaratishga katta e'tibor qaratdi. Nafaqat mustaqillik yillarida, balki so'nggi 4-5 yillikda ham kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonun-farmonlar ishlab chiqilmoqda. Misol o'rnida shuni keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 37-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda tijorat banklarining takliflariga rozilik berilgan. Ular: "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga kichik biznesni rivojlantirish maqasadida joylashtirilgan 223 mlrd so'm miqdoridagi subordinar qarzning asosiy qarz to'lovini 2030-yildan boshlab 5 yil davomida teng ulushlarda qaytarish, 320,9 mlrd so'm miqdoridagi kredit liniyasi mablag'larini qaytarishning so'nggi muddatini o'zgartirmagan holda, asosiy qarz to'lovini 2030-yildan boshlab teng ulushlarda to'lab berish sharti bilan subordinar qarz sifatida qayta rasmiylashtirish, "Har bir oila —

tadbirkor” dasturi doirasida “Mikrokreditbank” ATBga joylashtirilgan 425 mldr so‘m miqdoridagi depozit mablag‘larni qaytarish muddatini 7 yilga uzaytirish va hokazolar.

Hozirgi kunda insonlar kichik biznes bilan shug‘ullanish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan.

Bank kreditlari: Kichik bizneslar uchun banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Banklar tadbirkorlarga turli xil kredit mahsulotlarini taklif etadilar, masalan, qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar, ish boshlash uchun kreditlar va investitsiya kreditlari. Bu kreditlar tadbirkorlarga o‘z bizneslarini kengaytirish, yangi uskunalar sotib olish yoki operatsion xarajatlarni qoplash imkonini beradi. Misol uchun Sanoat qurulish bank tomonidan energiyani tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan loyihalarini amalga oshirish uchun “Green loan” kredit dastuti ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra 20,5% stavkada 60 oy muddatgacha 1 000 000 AQSH dollarigacha kredit olish mumkin. Ushbu dasturda imtiyoz davri 12 oy hisoblanadi.

Subsidiyalar va grantlar: Davlat va xalqaro tashkilotlar kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun subsidiyalar va grantlar taqdim etadilar. Bu moliyaviy yordamlar tadbirkorlarga o‘z loyihalarini amalga oshirishda yordam beradi va moliyaviy yukni kamaytiradi. Subsidiyalar ko‘pincha ijtimoiy masalalarni hal qilishga qaratilgan loyihalar uchun beriladi, bu esa tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy jihatdan foydali qilish imkonini beradi.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari: Ko‘plab davlatlar va tashkilotlar kichik bizneslarni rivojlantirish uchun turli dasturlarni taklif etadilar. Bu dasturlar ko‘pincha moliyaviy maslahatlar, treninglar va resurslarga kirish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Ular tadbirkorlarga o‘z bizneslarini muvaffaqiyatli boshqarish va rivojlantirishda yordam beradi.

Crowdfunding: Internet orqali amalga oshiriladigan crowdfunding (ommaviy moliyalashtirish) kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tadbirkorlar o‘z g‘oyalarini yoki loyihalarini ommaga taqdim etib, ko‘plab odamlarning mablag‘larini to‘plashlari mumkin. Bu usul, ayniqsa, innovatsion va ijtimoiy jihatdan foydali loyihalar uchun juda samarali bo‘lishi mumkin.

Ammo hamma narsani mashaqqati bo‘lganidek, kichik biznesda ham muammolar, qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Birinchidan kredit olishdagi qiyinchiliklar. Bu, kichik bizneslarda ko‘pincha banklardan kredit olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Banklar ko‘pincha yuqori xavf darajasini hisobga olib, kichik bizneslarga kredit berishni istamaydi. Bu, ayniqsa, yangi tashkil etilgan yoki tajribasiz tadbirkorlar uchun muammo bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlik yetishmasligi: Kichik biznes egalari ko‘pincha moliyaviy boshqaruv va investitsiya strategiyalarini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi, tadbirkorlarning to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga to‘sinqinlik qiladi va bu ularning biznesini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Lekin hozirgi kunda ko‘plab trening mashg‘ulotlari o‘tkaziladi, yana qo‘srimcha keltirish mumkinki, Youtube, Telegram, Instagram kabi ko‘plab ijtimoiy platformalarda bepul online darslar tashkil qilingan.

Raqobat va bozor sharoitlari: Kichik bizneslar ko‘pincha katta korxonalar bilan raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bozor sharoitlari va iqtisodiy o‘zgarishlar kichik bizneslarning moliyaviy barqarorligini ta’sir qiladi. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

O‘zgaruvchan qonunchilik va tartibga solish: Kichik bizneslar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ko‘pincha o‘zgaruvchan qonunchilik va tartibga solish bilan bog‘liq muammolar bilan cheklanadi. Davlat siyosatidagi o‘zgarishlar, masalan, subsidiyalar va grantlar uchun talablar yoki kredit olish shartlari, tadbirkorlarning moliyaviy rejalashtirishini murakkablashtirishi mumkin. Yana shuni qo‘srimcha keltirish kerakki, hozirgi kunda elektr, gazlardan foydalanishga limit qo‘yilgan, ya’ni belgilangan limitdan ko‘p foydalanish ko‘p xarajat sarflashga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shun ta’kidlashimiz mumkinki, iqtisodiyotdagi jo‘sinqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste’mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag‘batlantirish, iste’mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishda asosiy rol o‘ynaydigan soha bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari va muammolari tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ushbu sohada erishayotgan yutuqlarimiz haqida ko‘pdan ko‘p gapirishimiz mumkin. Albatta barchasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchundir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi “Kichik biznesni uzlusiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 37-sonli qarori
2. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot: *Darslik* / E.I.Ergashev, I.Bakiva, Sh.Fayziyev, B.Shermxamedov; - T.: “Iqtisod-Moliya” 2019, 680 b.
3. Sh. Sh. Shodmonov, U. V. G‘afurov. “Iqtisodiyot nazariyasi”. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 784 bet

4. Mikroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma/ I.A.Bakiva, X.S.Xadjayev, M.Z.Muxitdinova, Sh.Sh.Fayziyev.- Toshkent: -O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.-436 bet.
5. lex.uz - [internetdagi O'zbekiston qonun](#) hujjatlari ma'lumotlari milliy [bazasi](#).
6. Raqobat.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi
7. Saitov, S. (2024). Improvement of accounting and audit in road transport enterprises. SPAST Abstracts, 2(02). Retrieved from <https://spast.org/techrep/article/view/4927>
8. Saitov S. TRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 41-47.
9. Saitov S. JAHON IQTISODIYOTIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 23-31.
10. Saitov S. O 'ZBEKISTONNING TASHQI SAVDOSI: RAQAMLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 48-53.
11. Saitov S. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 32-37